



**JIZZAX VILOYAT STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**JIZZAX VILOYAT SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2023- YIL YANVAR- FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-fevral oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1610,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 98,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,2 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2023 yil yanvar-fevral


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 3,9 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 41,6 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,8 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2023-yil yanvar-fevral

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	1 046,8	172,1	-874,7
Mirzacho‘l tumani	73,7	90,1	16,4
Zomin tumani	1 068,7	418,1	-650,6
Jizzax shahri	4 849,6	11 992,0	7 142,4
Zafarobod tumani	1 620,1	88,0	- 1 532,1

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 92,2 % Zomin tumaniga to‘g‘ri kelib 3,1 % ni va G‘allaorol tumani 1,6 % ni tashkil etdi.

26,7 %


2022- yil

9,6 %

2023- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1548,9 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,2 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-fevral

93,1 %

2023-yil yanvar-fevral

96,2 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 39,0 % (18,6 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali - 11,4 % (17,8 %) va quyi texnologiyalisi - 45,8 % (56,7%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 35,8 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 185,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,9 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 133,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,5 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,9 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 92,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,5 % (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,0 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	9 280,0	6 549,6	-2 730,4
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	11 031,4	5 192,7	-3 012,3
Paxta chigiti, t.	14 561,0	9 814,5	- 4 746,5
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	825,0	1 022,3	197,3
Paxta linti, t.	601,0	579,3	-21,7
Trikotaj polotnolar, t.	304,0	277,0	-27,0

2023- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5,2 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (52,9 % kamaygan), 6,5 ming tonna paxta tolasi (39,7 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 9,8 ming tonna paxta chigiti 42,7 % ga) kamaygani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

47,1 %


Paxta tolasi, t.

60,3 %

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 117,3 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,9 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 133,4 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 15,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 58,6 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 115,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oyilarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 124,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 93,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 143,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 00,3 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar-fevral oylari yakun-lariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,002 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 0,04 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 38,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 124,9 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 80,8 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 441,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 109,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,1 %, fizik hajm indeksi 123,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 81,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 36,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi 137,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 64,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 97,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,3 % ni, fizik hajm indeksi 149,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 84,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 186,3 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 94,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 40,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 2,5 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 41,6 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	42 717,1	19 637,7	-23 079,4
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	2,2	3,1	0,9
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	17 906,6	20 028,3	2 121,7

2023-yil yanvar-fevral

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	11 251,9	4 792,7	-6 459,2
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	4 120,5	3 736,6	-383,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 63,0 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 27,7 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 735,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 95,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 45,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil
yanvar-fevral

17,7%

2023-yil
yanvar-fevral

17,7%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil
yanvar-fevral

82,3%

2023-yil
yanvar-fevral

82,3%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 17,7 % (2022- yil yanvar-fevral oylarida 17,7 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 16,1 % ni va G'allaorol tumani 58,4 % ni, Zarbdor tumani 4,7 % ni hamda Zarbdor tumani 3,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumanida (112,3 %), Zarbdor tumanida (204,7 %) hamda Forish tumanida (112,7 %), qayd etildi.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2993 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 839 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 28,0 % i) Jizzax shahriga, 438 tasi (14,6 %) Sharof Rashidov tumaniga, 341 tasi (11,4 %) G'allaorol tumaniga, 250 tasi (8,3 %) Zomin tumaniga va 187 tasi (6,2 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2021-yil

163 dona

2022- yil

188 dona

2023- yil

100 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2021- yil

3 550 dona

2022- yil

3 770 dona

2023- yil

2 993 dona